



GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP VA KUCHLI TA'SIR QILUVCHI MODDALARGA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Raxmonov Behzod Isroilovich

Bojxona instituti Maxsus-huquqiy fanlar kafedrası boshlig'i

Ergashev Jahongir Sheraliyevich

Bojxona instituti o'qituvchisi

Nasullayev Javohir Nutfullayevich

Bojxona instituti Bojxona ishi fakulteti 3-bosqich kursanti

Shukurov Shermuhammad Shodmonovich

Bojxona institute magistratura tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19363554>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 31- mart 2026 yil

KEY WORDS

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, prekursorlar, sintetik narkotiklar, yangi psixoaktiv moddalar (NPS), narkotik moddalar tasnifi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning tushunchasi, turlari va tasnifi yoritilgan. Shuningdek, ularning kelib chiqishi, inson organizmiga ta'siri va zamonaviy ko'rinishlari (jumladan, sintetik narkotiklar va yangi psixoaktiv moddalar) tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro konvensiyalar asosida ushbu moddalarning huquqiy tartibga solinishi ko'rib chiqilgan. Bojxona organlari tomonidan giyohvand moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berilgan.

Jamiyat uchun xavfli illatlardan biri bo'lgan giyohvandlik muammosi so'nggi yillarda nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo jamoatchiligini ham tashvishga solmoqda. Giyohvandlik inson salomatligining kushandasi bo'lib, ko'plab insonlarning umri va sog'lig'iga zomin bo'layotgan xavfli illatdir.

Bugungi kunda ushbu muammo yangi tahdidlar – sintetik giyohvand moddalarning keng tarqalishi, ularning arzonligi va tez tayyorlanishi, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali giyohvandlik vositalarining targ'ib qilinishi va sotilishi kabi zamonaviy xavflar bilan yanada murakkablashmoqda. Shu bois, uning oldini olish va unga qarshi kurashish davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 3-noyabr kuni millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish yo'nalishida o'tkazilgan yig'ilishda ta'kidlanganidek "Afsuski, mazkur illat mamlakatimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Yil boshidan 11 mingdan ziyod narkojinoyat aniqlanib, 2,5 tonnaga yaqin giyohvand moddalar ushlab qolindi. Bunday jinoyatlarning shakl va turlari yildan yilga ko'payib, qamrovi ortib borayotgani narkojinoyat va giyohvandlikka qarshi kurashishni kompleks ravishda tashkil qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa ekanini ko'rsatmoqda" [1].

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-207-son Farmoni qabul qilindi[2].

Bundan asosiy maqsad giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash hisoblanadi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tushunchasi xalqaro va milliy qonunchilik asosida belgilangan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan mazkur yo'nalishda bir qator konvensiyalar qabul qilingan bo'lib bular 1961-yilda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona Konvensiya"si [3], 1971-yilda qabul qilingan "Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya"si [4] hamda 1988-yilda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi Konvensiya" [5]lari xalqaro miqyosida nazorat mexanizmlarini belgilab berishga xizmat qilib kelmoqda.

Giyohvandlik vositalari deganda, tibbiyotda davolash maqsadida og'riqlardan forig' qilish yoki uxlatadigan, shuningdek o'simlik tarkibidan olinadigan yoki sun'iy tarzda tayyorlanadigan, kishiga aqldan ozish yoki o'ta vaqtichoqlik uyg'otadigan vositalar tushiniladi.

Giyohvand moddalar kelib chiqishiga ko'ra ikki xil toifaga, tabiiy va sun'iy giyohvand moddalarga bo'linadi. Bular esa ta'sir qilishiga ko'ra kuchli va kuchsiz ta'sir etuvchi turlariga bo'linadi.

Kelib chiqishiga ko'ra turlari:

Zamonaviy tasnifga ko'ra giyohvand moddalar quyidagi toifalarga bo'linadi:

1.Tabiiy giyohvand moddalar – o'simliklardan olinadigan moddalar (masalan, opiatlar, kannabis hosilalari).

2.Yarim sintetik moddalar – tabiiy moddalarni kimyoviy qayta ishlash orqali olinadi.

3.Sintetik moddalar – laboratoriya sharoitida to'liq sun'iy ishlab chiqariladigan moddalar (amfetaminlar, metamfetamin, sintetik kannabinoidlar va boshqalar).

4.Yangi psixoaktiv moddalar (NPS) – xalqaro ro'yxatlarga hali kiritilmagan, ammo ta'siri jihatidan giyohvand moddalarga o'xshash bo'lgan kimyoviy birikmalar. Bugungi kunda eng katta xavf manbai aynan shu tur hisoblanadi.

Zamonaviy tendensiyalarga ko'ra, sintetik opioidlar (ayniqsa fentanil turkumi) ko'plab davlatlarda o'lim holatlarining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda.

Sintetik moddalarning quyidagi turlari hozirda ko'plab uchramoqda.

Amfetaminlar – inson markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi, stimulyator kimyoviy moddalar turkumidir. Ularni iste'mol qilish natijasida fikrlash jarayoni tezlashadi. Amfetaminning ayrim hosilalari galyutanogen yoki psixotrop ta'sirga ega.

Metamfetamin – bu juda kuchli sintetik psixostimulyator bo'lib, amfetaminlar guruhiga kiradi. U markaziy nerv tizimini keskin qo'zg'atadi va eng tez hamda og'ir qaramlik keltirib chiqaradigan giyohvand moddalardan biri hisoblanadi.



bostirma – belgilandan tabletkalar ko'rinishida uchraydi.

MDMA ko'pincha "ekstazi" yoki "molly" deb ataladigan sintetik psixoaktiv modda bo'lib, amfetaminlar guruhiga yaqin hamda psixostimulyator va empatogen (hissiy yaqinlik) ta'sirga ega.

Efedron (mefedron) – O'rta Osiyoda o'suvchi efedra qirqbo'g'in o'simligining tomiri, shuningdek qotmagan tepa qismlaridan tayyorlanadigan giyohvandlik vositasi. Achchiq ta'mli oq kukun shaklda bo'ladi. U noqonuniy ravishda tarkibida efedrin bo'lgan dori vositalaridan ham tayyorlanadi.

Efedron odatda ko'cha atamasi bo'lib, **mefedron** (4-MMC) yoki unga o'xshash **sintetik psixostimulyatorlarni** anglatadi. Ular "bath salts" (tuzlar) deb ataluvchi sintetik kattinonlar guruhiga kiradi va **juda xavfli** hisoblanadi.



Asosiy ta'sirlari kuchli va uzoq davom etuvchi eyforiya, haddan tashqari hushyorlik va energiya, uyqu va charchoq hissining yo'qolishi, ishtahaning keskin pasayishi, ta'siri 6–24 soatgacha davom etishi mumkin, bu esa organizmni qattiq zaiflashtiradi.

MDMA – ushbu vosita tibbiyot maqsadlarda foydalanilmaydi, och sariq rangdan jigar rang tusdagi ukol qilish uchun eritma, kukun, qumsimon yoki kapsula ko'rinishida bo'ladi. Delfin, qush, o'roq va bolg'a kabi



Mefedron (4-MMC) sintetik psixostimulyator bo'lib, ta'siri tez boshlanadi va juda tez qaramlik keltirib chiqaradi. Tarkibi va konsentratsiyasi barqaror emas, dozani nazorat qilish qiyin, ta'siri tez ketadi va qayta-qayta qabul qilishga majbur qiladi. Salbiy ta'siri psixoz, paranoiya, tajovuz hislarini keltirib chiqaradi.



LSD - sintetik kuchli ta'sir qiluvchi giyohvand gallyutsinogen modda, lizergin kislotasi - "Clavaiceps purpurec" qora kuyasi alkaloidining muhim qismi, u zang va boshqa o'tlarni parazitlaydi. Pochta markalari yoki ularga o'xshash yopishuvchi kichik qog'oz bo'laklari tarkibiga joylashtirib tarqatish urfga kirgan.

LSD kuchli gallyutsinogen psixoaktiv modda bo'lib, insonning

idroki, fikrlashi va his-tuyg'ularini keskin o'zgartiradi. U juda kichik dozada ham kuchli ta'sir qiladi.

α -PVP (alfa pirrolidinovalerofenon) - bu sintetik psixostimulyator bo'lib, "yangi psixoaktiv moddalar" (NPS) guruhiga kiradi. Ko'cha tilida ko'pincha "**tuz**" (**sol**) deb ataladi. Juda xavfli bo'lib, kuchli qaramlik, agressiya, gallyutsinatsiya va jiddiy sog'liq muammolarini (yurak-qon tomir, ruhiy) keltirib chiqaradi, aksar mamlakatlarda taqiqlangan Uning ta'siri kokain yoki amfetamindan bir necha barobar kuchliroq bo'lishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning narkokuryer va giyohvandlar tomonidan qo'llaniladigan (jargon) atamalari

Opiy - qora, mak, choy, kukun, plastilin...

Gashish - ruchnik, saqich, dori, jingo, plastilin...

Marixuana - xashak, o't, dori, haydar, jaruxa (qovurilgan marixuana)...

Tramadol va boshqa psixotropalar - kichkina, tram, g'ildirak, kolyosa, gayka, atir, fanta, SUV...

Spays - ximka, nam, mix, sinta...



Geroin – gera, gerich, oq, gena, kukun, poroshok...

Kokain – kukun kok sneg nos...

Kodein - katyuxa, pur, koda, qizil sirop deb yuritiladi.

Kontrabanda ashyolari hisoblangan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanishi nafaqat jinoyatchilikning avj olishiga, balki xalq ma'naviyatining tanazzuliga, yoshlar ongining zaharlanishiga va pirovardida davlat barqarorligiga putur yetkazuvchi jiddiy tahdidlardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanishi barcha davrlarda dolzarbligini saqlab qolayotgan murakkab muammolardan biridir.

Shu sababli, unga qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida bojxona va boshqa vakolatli organlar tomonidan qo'llanilayotgan vosita va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borish, shuningdek, yangi paydo bo'layotgan zamonaviy xavflarni inobatga olgan holda tezkor choralar ko'rish hamda giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishining oldini olish, huquqbuzarliklarni sodir etayotgan shaxslarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo'yish, voyaga yetmaganlar va yoshlarni ushbu illatdan asrash maqsadida tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tezkor-profilaktik tadbirlarni yanada ko'proq amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Iqtiboslar/snoski/references:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 3-noyabr kuni millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish yo'nalishida o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/8617>;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-207-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7818774>;
3. "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona Konvensiya" (1961-yil). <https://lex.uz/ru/docs/2673450>;
4. "Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya" (1971-yil). <https://lex.uz/docs/2676167>;
5. "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi Konvensiya" (1988-yil). <https://lex.uz/docs/2614140>.